

**RESPUBLIKAMIZDA JISMONIY MADANIYAT SOHASIDA KADRLAR  
TAYYORLASHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH**  
**SamISI “Jismoniy madaniyat” kafedrası mudiri J.B.Axtamov**

O'zbekistonda bugungi kundagi o'tkazilgan tub islohatlar mazmunida jismoniy madaniyat sohasida mutaxassislar tayyorlash eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Buning natijasi jismoniy madaniyat sohasida kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur tadbirlar va faoliyatlarini amalga oshirishda jismoniy tarbiya va sportning keng tarmoqli sohalari bo'yicha mutaxassis xodimlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar tobora oshib bormoqda. Bu talab va ehtiyojlarni taminlash hamda amalga oshirishda O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya instituti, viloyatlardagi Oliy talim muassasalari tarkibida jismoniy tarbiya fakultetlari (16 ta) va Olimpiya zahiralari kollejlari (13 ta) sarmahsul faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek maktabgacha talim, pedagogika va boshlang'ich talim fakultetlari, pedagogika kollejlari tarkibidagi jismoniy tarbiya bo'limlarida ham bog'cha tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya o'qituvchilari, tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlash amalga oshirilmoqda. Rasmiy malumotlarga qaraganda Respublikada jismoniy tarbiya va sport bo'yicha 35 mingdan ortiq mutaxassislar faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan 25 mingdan ortig'i talim muassasalarida va BO'SMlarining barcha yo'nalishlarida xizmat qilmoqda. Sport turlari bo'yicha amalga faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar haqida so'z yuritilsa, 40% dan ortiq kadrlar futbol va sport o'yinlari turlariga to'g'ri keladi. Milliy kurashlar va sharqona yakka kurashlar bo'yicha 25-30% ni tashkil qiladi. Yengil atletika (8-10%), gimnastika (5-7%), sport tashkilotlarida rahbarlik kabi turlarida (6-8%) xizmat qilish bilan banddirlar.

Mazkur o'quv muassasalarda kadrlar tayyorlash asosan o'quv va tarbiya (bog'chalar) muassasalari uchun o'qituvchilar tayyorlash maqsadida qo'yilgan sport turlari bo'yicha murabbiylar tayyorlash faqat O'zDJTI va Olimpiya zahiralari kollejlari zimmasiga yuklatildi. Jismoniy tarbiya fakultetlarida esa umumiy darslar (sport turlari) va sport mahoratini tarbiyalash maxsus kurslarda u yoki bu darajada murabbiylar tayyorlash olib boriladi. Yana bir tomoni shundaki, sportning u yoki bu turi bo'yicha tayyorgarlik darajasi (sport ustasi yoki nomzod) yuqori bo'lgan mutaxassislar ish faoliyati jarayonida (1-3 yil) murabbiylik tajribalarini egallab, malaka oshirish fakulteti va kurs-semenarlarda o'z mahoratlarini oshirishmoqda.

Mutaxassislarning ish faoliyati ilmiy-nazariy tahlil qilinsa, ular asosan futbol, sport o'yinlari turlari va milliy kurash, sharqona yakka kurashlar, boks kabi yo'nalishlari ajralib qolgan. Buning ijobiy tomoni shundaki, iqtidorli bolalarni sportga jalb etish, ularni tarbiyalab, katta sportga safarbar qilishda muhim ahamiyatga egadir. Yani istiqloq taqozo etayotgan talab va maqsad shundaki, Respublika terma jamoalari xalqaro sport maydonlarida, ayniqsa Osiyo, jahon birinchiliklari va Olimpiya o'yinlarida qatnashib, yurtimiz shon-shuhratini olamga keng yoymoqda. Salbiy tomoni shundaki, ko'pchilik yoshlar sevgan sport turlari,

xalq milliy o'yinlari, sayohatlar bo'yicha mutaxassislar kamligi, bu sohalarga etibor sust darajada ekanligidan dalolat bermoqda.

Etirof etish lozimki, aholining solomatligini yaxshilash, ommaviy sog'lomlashtirish sport tadbirlariga ham etiborni kuchaytirish istiqlol qo'ygan muhim vazifalardan biridir. XXI-asrda boshqa sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport jarayonini texnik vositalar bilan taminlash, darslar va o'quv mashg'ulotlarini yangi texnologiyalar asosida tashkil qilish, o'quvchi va talaba sportchilarni kompyuter tizimlari bilan qurollantirishni davom ettirmoqda. Demak, kadrlar tayyorlashda texnik vositalar, texnologik usullarni keng miqdorda amalga oshirish lozim hisoblanadi. Yana bir muhim muammolardan biri shundaki, hozirgi davr pedagogika, psixologiya, tibbiyot, biologiya va ular bilan bog'liq bo'lgan fanlar mazmunida sog'liqni muxofaza qilish, sog'liqni saqlash, tana azolarini maxsus (yengil) mashqlar bilan tarbiyalashga qaratilgan yangi yo'nalish-valeologiya yo'nalishi yuzaga kelmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatidan talim berishda yangicha yondashishni talab etadi. Jismoniy tarbiya talimida jismoniy tarbiya va sportning shaxsni shakillantirish va uni jismoniy takomillashtirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Bu esa aholining barcha qatlamlari va toifalarida jismoniy tarbiya vositalarini jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash, barkamollikni o'stirishdagi tarbiyaviy jihatlarini ularning ongiga singdirish, demakdir. Bu yo'lda nazariy bilimlarga ega bo'lish va malaka hosil qilish eng muhim omillardan hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, iqtidorli bolalarni sportga jalb etish, ularni tarbiyalab, katta sport orqali xalqaro sport musobaqalarida qatnashish va g'alabalarga erishtirishning o'zi sportni ommaviylashtirishda asosiy vosita bo'lolmaydi. Shu sababli, eng avvalo aholining tushincha va qiziqishlarini kuchaytirish, ommaviy sport musobaqalarini ko'proq uyushtirish, ularni jalb etish lozim. Bu yo'lda mutaxassis hodimlarning faoliyati ustuvor ekanligi barchaga malumdur. Sportga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishlarni kengaytirishda matbuot, teleradioning tasirchan kuchi g'oyat kattadir. Bu yo'lda sport jurnalistlarining malumotlari, yangi xabarlari, lavha va xikoyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, hozirgi kun sharoitida sport jurnalistlariga bo'lgan ehtiyoj g'oyat kuchli. Sport jurnalisti eng avvalo aholining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan etiqodi, qiziqishlari va ibratli jihatlarini ilmiy, ommabop darajada yoritib berishdir. Buning uchun esa sport turlari mazmuni, sport psixologiyasi, sport pedagogikasi, sport fiziologiyasi kabi fanlarni chuqur o'zlashtirgan holda adabiy-badiiy jihatdan voqyeliklarni ifodalashi lozim.

Xulosa qilib aytganda mutaxassislar tayyorlashda asosiy yo'nalishlar rejasiga ommaviy sog'lomlashtirish, sport tadbirlarini tashkil qilish (tashkilotchi), valeologiya, xalq milliy o'yinlari (ot sporti, ko'pkari-uloq) va sport jurnalistlarini tayyorlash jarayonlarini (bo'limlar) kiritish istiqlol taqoza etayotgan talablardir.

